

«TENGE YORQIN» TANLOVINI O‘TKAZISH QOIDALARI
«TENGE BANK» ATB NING INSTAGRAM IJTIMOYIY TARMOĞIDAGI SAHIFASI
OBUNACHILARI UCHUN

I. UMUMIY QOIDALAR

1. «Tenge Yorqin» tanlovi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) «Tenge Bank» Aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – Bank) tomonidan Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi rasmiy sahifasi <https://www.instagram.com/tengebankuz/> (keyingi o‘rinlarda – «tengebankuz») obunachilari o‘rtasida o‘tkaziladi va Tanlov shartlarini to‘liq bajargan shaxslar (keyingi o‘rinlarda – Ishtirokchi) ishtirok etadi.
2. Tanlov Bankning marketing kampaniyasining bir qismi bo‘lib, mijozlar sodiqligini oshirish, Bank mahsulot va xizmatlariga qiziqishni rag‘batlantirish hamda Instagram’dagi asosiy sahifa «tengebankuz»ni rivojlantirishga qaratilgan.
3. Tanlov lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan o‘yin hisoblanmaydi. Unda ishtirok etish uchun to‘lov talab etilmaydi va ishtirokchilar uchun mulkiy xavf tug‘dirmaydi. Sovrin jamg‘armasi Bankning o‘z mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi.
4. Ushbu Qoidalar Tanlovni o‘tkazish tartibi, shartlari va muddatlarini, ishtirokchilar doirasini, g‘oliblarni aniqlash va sovrinlarni topshirish tartibini belgilaydi.
5. Ushbu Qoidalar mehnat shartnomasi asosida ishlovchi Bank xodimlariga tatbiq etilmaydi.
6. Tanlov tashkilotchisi — «Tenge Bank» ATB.
7. Bank Tanlovni tashkil etish, o‘tkazish va nazorat qilishni amalga oshiradi hamda ushbu Qoidalarga rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadi.
8. Bankning yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 100007, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Parkent ko‘chasi, 66-uy.
9. Bankning aloqa markazi: 1245 qisqa raqami.

II. TANLOVNI O‘TKAZISH MUDDATI VA JOYI

10. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.
11. Tanlov muddati: 2026-yil 15-apreldan 2026-yil 15-maygacha (shu kuni ham kiradi).
12. 2026-yil 15-apreldan oldin yoki 2026-yil 15-maydan keyin shartlarni bajargan obunachilar Tanlovda ishtirok eta olmaydi.

III. TANLOV ISHTIROKCHILARI

13. Tanlovda quyidagi shartlarni bajargan «tengebankuz» sahifasi obunachilari ishtirok etishi mumkin:
 1. Instagram’da «tengebankuz» sahifasiga obuna bo‘lish;
 2. Tanlov haqidagi postni o‘z sahifasida Stories orqali repost qilish;
 3. Bank mediafasadi fonida (kadrda Bank logotipi bilan) Reels video yoki kreativ foto-post joylashtirish;
 4. Kayfiyatni aks ettirish (bahor / bayram / energiya / baxt / oldinga intilish);
 5. @tengebankuz sahifasini belgilash va #TengeYorqin xeshtegini qo‘yish;
 6. Instagram’da ochiq, faol va haqiqiy akkauntga ega bo‘lish;
 7. Tanlov uchun joylashtirilgan post faol (o‘chirilmagan) bo‘lishi.

IV. SOVRIN JAMG‘ARMASI

14. Tanlov sovrin jamg‘armasi quyidagilardan iborat:
 - 1 ta asosiy (yirik) sovrin — Fujifilm Instax Mini 12 fotoapparat to‘plami (keyingi o‘rinlarda — Asosiy sovrin);
 - 3 ta standart sovrin — Kodak plynkali fotoapparat va bir martalik Kodak plynkasi (keyingi o‘rinlarda — Standart sovrin).
15. Tanlov doirasida jami 4 (to‘rt) nafar g‘olib aniqlanadi:
 - 4 nafar g‘olib orasida eng ko‘p ko‘rishlar va “yoqdi” (layk) belgilarini to‘plagan 1 nafar ishtirokchi Asosiy sovrinni qo‘lga kiritadi;
 - qolgan 3 (uch) nafar g‘olib Standart sovrin bilan taqdirlanadi.
16. Sovrinlarni olgan shaxslarga soliq solish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

V. TANLOVNI O‘TKAZISH SHARTLARI VA TARTIBI

17. Tanlovda Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi Bankning «tengebankuz» rasmiy sahifasi obunachilari, ushbu Qoidalarga muvofiq barcha shartlarni 2026-yil 15-apreldan 2026-yil 15-maygacha (shu kuni ham kiradi) bajargan taqdirda ishtirok etadi.
18. Ushbu Qoidalarining 11-bandida ko‘rsatilgan muddat davomida «tengebankuz» sahifasi obunachilari, mazkur Qoidalar talablariga javob bergan holda, Tanlovda ishtirok etish va 14-bandda nazarda tutilgan sovrinlarni yutib olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
19. Sovrinlar o‘ynalishi Tanlov yakunlangandan so‘ng 7 (yetti) bank kuni ichida amalga oshiriladi.
20. G‘olib ushbu Qoidalarining barcha shartlarini bajargan ishtirokchilar ro‘yxatidan aniqlanadi.
21. G‘oliblarni aniqlash eng ko‘p ko‘rishlar soni va “yoqdi” (layk) belgilarining miqdori asosida amalga oshiriladi.
22. G‘oliblar ro‘yxati Bankning Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi «tengebankuz» rasmiy sahifasida Stories orqali, shuningdek Bankning rasmiy veb-sayti <https://www.tengebank.uz/> da e‘lon qilinadi.
23. Har bir sovrin o‘ynalishi uchun ishtirokchilar ro‘yxati Bank tomonidan barcha ishtirok etish shartlari bajarilganligi asosida shakllantiriladi.
24. Barcha ishtirokchilar ro‘yxati Instagram’dagi «tengebankuz» sahifasidagi belgilanishlar asosida shakllantiriladi.
25. Tanlovda ishtirok etish orqali Ishtirokchi o‘z xohishiga ko‘ra va o‘z manfaatlarini ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta’minlash talablari asosida, o‘zining shaxsiy ma’lumotlarini Bank tomonidan qayta ishlash, ulardan foydalanish, ularni tarqatish va uzatishga rozilik beradi.
26. Mazkur rozilik Ishtirokchiga tegishli bo‘lgan har qanday ma’lumotlarga nisbatan beriladi, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: F.I.Sh., tug‘ilgan sana, mobil telefon raqamlari va boshqa ma’lumotlar.
27. Tanlov G‘olibi deb topilgan Ishtirokchi o‘zining ismi, familiyasi, otasining ismi, tasvirlari (fotografiyalari), videolari Bankning ijtimoiy tarmoqlarida, internet tarmog‘ida, OAVda va boshqa axborot vositalarida, jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) Instagram, Facebook, Telegram, LinkedIn, Threads platformalarida joylashtirilishiga rozilik beradi.
28. Tanlov g‘oliblari o‘zlariga tegishli ism, familiya, otasining ismi, fotografiyalar va boshqa materiallar Bank tomonidan marketing va reklama maqsadlarida qo‘shimcha mukofotsiz va qo‘shimcha roziliksiz foydalanilishiga rozilik beradi.
29. Mazkur Tanlovni o‘tkazish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Tashkilotchi va Ishtirokchi o‘rtasida muzokaralar yo‘li bilan hal

etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida ko‘rib chiqiladi.

30. G‘olib sovrin yutgani haqida Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi «tengebankuz» rasmiy sahifasidan Direct xabari orqali, u ishtirok etgan sahifaga yuborish yo‘li bilan xabardor qilinadi.
31. Tanlovda ishtirok etish ushbu Qoidalarga to‘liq va so‘zsiz rozilik bildirilganligini anglatadi.
32. Agar sovrin o‘ynalishi vaqtida Tanlov shartlarini bajargan ishtirokchilar mavjud bo‘lmasa, Bank ushbu Qoidalarga muvofiq qo‘shimcha o‘ynalish o‘tkazish orqali g‘oliblarni aniqlaydi. Qo‘shimcha o‘ynalish sanasi oldindan Bankning «tengebankuz» sahifasida hamda rasmiy veb-saytida e‘lon qilinadi.

VI. SOVRINLARNI OLISH TARTIBI

33. ankning sovrinlarni topshirish bo‘yicha majburiyatlari sovrin G‘olibga topshirilgan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.
34. Sovrinlar G‘oliblar aniqlangan va e‘lon qilingan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) bank kuni ichida, belgilangan tartibda topshiriladi.
35. Sovrin topshiriladigan manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Ukchi MFY, Islom Karimov ko‘chasi, 1-uy, 1-B bino.
36. Sovrinni olish uchun G‘olib shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (pasport yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjat) taqdim etishi hamda tanlovda ishtirok etgan Instagram akkaunti o‘ziga tegishli ekanligini tasdiqlashi shart.
37. Sovrin topshirish vaqtida G‘olibning Instagram sahifasi faol, ochiq (ommaviy) bo‘lishi va g‘olib bo‘lgan post o‘chirilmagan holda saqlangan bo‘lishi kerak.
38. Sovrinni rasmiylashtirish va olish jarayonida G‘olib barcha zarur hujjatlarni imzolashi shart. Sovrin topshirilishi qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolash orqali amalga oshiriladi.
39. Agar G‘olib zarur hujjatlarni imzolashdan bosh tortsa yoki sovrinni olish uchun talab etilgan harakatlarni bajarmasa, bu sovrindan voz kechish deb hisoblanadi.
40. Agar G‘olib sovrin yutganligi haqida xabardor qilingan kundan boshlab 10 (o‘n) bank kuni ichida sovrinni olishdan bosh tortsa yoki aloqaga chiqmasa, sovrin talab qilinmagan deb hisoblanadi va G‘olib sovrinni olish huquqidan mahrum bo‘ladi.
41. Talab qilinmagan sovrin saqlanmaydi, qayta berilmaydi va Bank tasarrufiga o‘tadi hamda barcha shartlarni bajargan ishtirokchilar o‘rtasida qayta o‘ynaladi.
42. Bank Tanlovda ishtirok etish bilan bog‘liq ishtirokchilarning xarajatlari yoki yo‘qotishlarini qoplamaydi.
43. Bank G‘olibning sovrinni olish joyiga borish va qaytish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplash majburiyatini olmaydi.
44. Bank sovrindan foydalanish natijasida G‘olib yoki uchinchi shaxslarga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.
45. Bank quyidagi holatlar uchun javobgar emas:
 - G‘olib tomonidan zarur ma‘lumot yoki hujjatlarning o‘z vaqtida taqdim etilmasligi;
 - sovrinning olinmasligi yoki undan voz kechilishi;
 - G‘olib tomonidan sovrinni olish tartibiga rioya qilinmasligi.

VII. TANLOV ISHTIROKCHILARINI TANLOV SHARTLARI, UNI TO‘XTATIB TURISH YOKI MUDDATIDAN OLDIN YAKUNLASH HAQIDA XABARDOR QILISH TARTIBI

46. Bank ushbu Qoidalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shu jumladan Tanlovni muddatidan oldin yakunlash yoki uning muddatini uzaytirish huquqini o'zida saqlab qoladi.
47. O'zgartirishlar haqidagi ma'lumotlar kuchga kirishidan kamida 3 (uch) ish kuni oldin Bankning rasmiy Instagram sahifasida — «tengebankuz» hamda rasmiy veb-saytida www.tengebank.uz e'lon qilinadi.
48. Tanlov ishtirokchilarini Tanlov shartlari va uni o'tkazish tartibi haqida xabardor qilish quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:
 - «Tenge Bank» ATB ijtimoiy tarmoqlarida reklama postlarini joylashtirish orqali;
 - Bank xodimlari uchun korporativ Outlook elektron pochta tizimi orqali xabar yuborish orqali;
 - Bankning rasmiy veb-sayti www.tengebank.uz orqali;
 - «Tenge24» mobil ilovasida PUSH-bildirishnomalar yuborish orqali.
49. Tanlov haqida batafsil ma'lumotlar hamda ushbu Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida www.tengebank.uz joylashtirilgan.
50. Tanlov bo'yicha qo'shimcha ma'lumotni 1245 telefon raqami orqali olish mumkin.
51. Tanlov muddatidan oldin yakunlangan taqdirda, uning muddati uzaytirilganda yoki ushbu Qoidalarga o'zgartirishlar kiritilganda, tegishli ma'lumotlar www.tengebank.uz rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.